

QOBILJON SHERMATOVNING "BUVAMNING OSHQOZONIDAGI MAMLAKAT" ASARIDA BOLA OBRAZI

KAYUMOV Abdavaxob

Doctor of Philology (PhD)

Fergana State University

ISAKOVA Jumagul

Master's student of Fergana State University

Fergana, Uzbekistan



<https://doi.org/10.24412/2181-2993-2022-2-404-410>

ANNOTATSIYA

Maqolada zamonaviy o'zbek nasri bolalar adabiyotida ijod qiliyotgan bolalar yozuvchisi Qobiljon Shermatovning "Buvamning oshqozonidagi mamlakat" asari o'rganilgan. Qissada bola tasviri va uning ruhiy olami tahlil qilingan. Bolalik olamining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari yozuvchi tomonidan atroflicha yoritib berilgan

Kalit so'zlar: bola obrazi, qissa, o'zbek nasri, an'anaviylik, bola psixologiyasi, kinoya-kesatiq, diniy haqiqat.

ABSTRACT

In this article, the story of "Buvamning oshqozonidagi mamlakat" who works in the modern Uzbek style, "The country in your grandmother's kitchen is easily studied". The story describes the child and his spiritual world. The writer describes the unique features of the childhood world in detail.

Key words: image of child, short story, uzbek art, tradition, child psychology, ironic religious truth.

KIRISH (Introduction)

O'zbek adabiyotida bola obrazi haqida keng to'xtalish mumkin. Zero, har bir ijodkor o'z badiiy olami, uslubi va iste'dodi bilan o'ziga xos obrazlar yaratadi. Bolalar adabiyotiga endigina kirib kelayotgan yosh ijodkor Qobiljon Shermatov asarlari ham ayni maktab yoshidagi bolalar uchun mo'ljallangan.

Uning 2021-yilda "Akademnashr" tomonidan chop etilgan "Buvamning oshqozonidagi mamlakat" asari bolalik gashtini surayotgan kichik yoshdan katta yoshgacha muallif nutqi bilan aytganda "Men bu kitobni popka ko'targan hamma bolalarga bag'ishlab yozdim. Ehtimol, u bola popkani yelkadan qo'yganiga ancha zamonlar bo'lgandir. Lekin umrida popka tutganmi, tamom, demak, unga ham

taalluqli”.¹ Qissada hozirgi davrning global muammolari yoshlarimiz hayotining haqqoniy manzaralari aks ettirilgan. Bundan tashqari asarda xalqimiz hayotiga kirib kelayotgan fan-texnika yutuqlarining yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni, prezidentimiz tomonidan yoshlarga berilayotgan shart-sharoitlardan oqilona foydalanmaslik, jamiyatimiz avj olayotgan poraxo‘rlik, o‘z mansabini suiste‘mol qilish kabi illatlar tilga olinadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR (Discussion and results)

Bolalarning xayolot olami tizginsiz, ko‘klarda parvoz qiluvchi bo‘ladi. Ular had-hudud bilmas xayolot qanotida oyoq yetmas o‘lkalarga sayohat qiladilar, g‘ayritabiiy sarguzashtlarni boshdan kechiradilar. Ehtimol katta yoshdagi bolalar bu voqealarni uydirma deb hisoblar, yosh kitobxon esa, garchi bu sarguzashtlarning yolg‘onligini bilsa-da, unga ishonadi, hatto uni davom ettiradi. Shu o‘rinda muallif kitobxon diqqat eti‘borini tortish uchun o‘zga bir olamning “ko‘z ko‘rib quloq eshitmagan” manzaralarini hayotiy misollar orqli haqqoniy tasvirlagan. Hushyor kitobxon bu manzaralarda jiddiy, o‘ta qaltis ma‘no borligiga gap hozirgi yashab turgan zamondagi yaxshi-yomon illatlarimizning kun kelib javob berishimiz kerak ekanligi, to‘g‘ri yo‘lga chorlovchi boqiy dunyo haqiqatlari haqida ekanligini sezadi. Bu chaqiriqlar bolalar tilidan sodda, ixcham va tushunarli tarzida ifoda etilgan. Asardagi kinoya-kesatiqlar bolalarga diniy haqiqatlarni yetkazishga da‘vat etilgani bajarayotgan har bir amalimiz kezi kelganda biz uchun mukofot yoki jazo bo‘lishi mumkinligini kundalik hayotiy misollar orqali ochib berilgan. “Bizda pora bergan qo‘ldan xuddi maymunnikiday jun osib chiqadi. Keyin uni yuz marta qirsa ham, baribir, yo‘qolmaydi. So‘ng u odam umrining oxirigacha hammaga masxara bo‘lib yuradi, birov bilan so‘rasha olmaydi. Hamma bilan ovqatlana olmaydi. Nuqul qo‘lini cho‘ntagiga tiqib, chekka-chekkalarda kalamushday biqinib yuradi. Xuddi hozir qo‘limdan jun osib chiqadiganday xavfsirab yana so‘radim: - Pora olgan qo‘l-chi, unga nima bo‘ladi? Pora olgan qo‘l esa xuddi o‘rik qoqisiga o‘xshab bujmayib qoladi”.² Shoir Qobiljon ham ulkan adabiyotshunos Salohiddin Mamajonov aytganidek: “Turmushdagi va odamlardagi illatlarning tomirini qirqish uchun kurashni hayoti- ijodining bosh yo‘li deb tushunadi. Bu bolalar adabiyotida ijod qiluvchi ijodkorlar uchun birdek yo‘nalishdir”.³

Biz g‘oyat teskor zamonda yashayapmiz. Fan-texnika rivoji hozirgi davr yoshlarining shaxsiy-oilaviy, axloqiy munosabatlariga kuchli ta‘sir

¹ Shermatov Q. Buvamning oshqozonidagi mamlakat. Akademnashr.2021.4-bet

² Shermatov Q. Buvamning oshqozonidagi mamlakat. Akademnashr. 2021. 32-bet

³ Normatov U. Qalb inqilobi. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. T. 1986.288-bet

ko'rsatyapti. Asrimiz mo'jizalari kompyuter, telefon, har xil sayt va ijtimoiy tarmoqlarning kirib kelishi o'sib kelayotgan yoshlarimiz hayotida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning yo'qolib borishiga xizmat qilmoqda. Bu haqda muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich "Bugungi notinch va tahlikali zamonda yoshlarning ongi va qalbini egallashga qaratilgan turli xavf-xatarlar toboro kuchayib borayotganini barchangiz yaxshi bilasiz. Ularga qarshi kurashishda xalqimizning boy tarixi va madaniyati, buyuk ajdodlarimiz jasorati,, jonajon O'zbekistonimizning milliy manfaatlari biz uchun kuch-qudrat manbai bo'lib xizmat qilmoqda".⁴ Maskur qissa davomida kompyuter o'yinlariga ruju qo'ygan, o'yinqaroq bolalar Bahodir va Baxtiyorning ajoyib sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi. Darhaqiqat, ular mustaqil O'zbekistonning asl farzandlari. Ularning o'qib izlanishlari uchun barcha imkoniyatlar yetarli. Lekin mana shu imkoniyatlardan foydalanmasdan yoshlikning beg'ubor faslini behuda o'tkazib, bor kuch-qudratlarini bo'lar-bo'lmas narsalarga sarflayotgan bu bolalar o'zlarining mana shu qilayotgan ishlari yaxshi emasligini bilishmaydi, tushunib yetishmaydi. Akasining buyuk kashfiyoti orqali kichkina odamga aylanib qolishadi va o'zlari bilmagan holda bobosi Mahmud kosibning oshqozoniga tushib qolishadi. U yerdagi o'zga olamning o'ziga xos bo'lgan qonun-qoidalari bolalar hayotini tubdan o'zgartirib yuboradi. Asar boshida o'yinqaroq, mas'ulyatsiz, bolalar voqealar rivojida esa asta-sekin o'zgarib boradi. Ular endi ilmi, jasur, yomonlik va yovuzlikni yo'q qiluvchi kurashuvchan, kashfiyotchi va izlanuvchan bolalarga aylanadi. "Olti yil umrimiz ilmiy tadqiqot markazida o'tdi. Ishonsangiz, do'kondan qog'oz olib chiqish yoki chiqindilarni pastga olib tushishni aytmaganda, deyarli binodan tashqariga chiqmay yashayverdik. Mana siz bilgan Baxtiyor bilan Bahodir ham endi yigirmaga kirgan katta yigitlar. Bu muhlat ancha ijobiy tomonga siljishimizga imkoniyat yaratdi. Juda ko'p maqola, dissertatsiya va boshqa ilmiy kitoblar bilan tanishib chiqdik. Hatto shaharning "Ilm" jurnalida sakkiz bor maqolam e'lon qilindi. Tirishqoqligimiz va matbuot sahifalarida doimiy qatnashishimiz, ayrim mitti kashfiyotlarimiz sabab sekin-sekin og'izga tusha borduk".⁵

Hozirgi vaqtda har bir kishini mehnatsiz tasavvur etish aslo mumkin emas. Kichik bolalardan tortib katta yoshdagi insonlargacha barchaning o'z yumushi bor. Ayniqsa, bolalarda birorta kasbga bo'lgan qiziqishni shakllantirish,

⁴ Mirziyoyev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' kelajagi farovon bo'ladi. O'zbekiston. T. 2019. 386-bet

⁵ Shermatov Q. Buvamning oshqozonidagi mamlakat. Akademnashr. 2021. 160-bet

ularni shu kasbga yo'naltirish borasida kichik yoshdan tortib, to balog'at yoshigacha uyda, ta'lim muassasalarida ularga boshlang'ich tushunchalar berib boriladi. "13-14 yoshdagi bolalarda kasblar haqida yaqqol tasavvur bo'lmasligi sababli ular ko'proq xatoga yo'l qo'yadilar. Tanlagan yoki tanlanishi zarur bo'lgan kasb qanday shaxsiy fazilatlarni talab qilishini tushunib yetmaydilar. O'z qobilyatlarini oqilona baholay olmasliklari tufayli u yoki bu kasbni egallash uchun qanchalik tez va aniq harakat qila olishlarini, bu ishga moslasha olishlari mumkinligini bilmaydilar".⁶ Bizning qahramonlarimiz ham o'qib o'rganishdan ko'ra biror kasb bilan shug'ullanishni o'zlari uchun oson tutadilar. Bilamizki, har bir kasbning o'ziga yarasha mashaqqati bo'ladi. Dastlab duradgorga shogird tushib, eshiklarga oshiq-moshiq o'rnatgan Bahodir hali bu kasbning sir-sinoatlarini mukammal bilmagan bois hamma oshiq-moshiqlarni teskari o'rnatib qo'yadi tez fursatda u yerdan haydaladi. Uning keyingi kasbi esa novvoylik bo'lib, risqi-ro'zimiz hisoblangan nonni qorish bilan shug'ullanadi. Bu holat asarda quyidagicha tasvirlangan. "Novvoy uyquga ketganda xamir qorardi. Shunga oldimda hech kim bo'lmasdi. Beshinchi kuni: "Birov ko'rib o'tiribdimi, xamirni oyog'imda qorsam qalay bo'larkin?!"- deb o'ylay boshladim. Oxiri shartta poychamni shimirdim-da, yashikka tushdim. Yarim soat ezg'ilaganimdan keyin xamir holiga keldi, keyin ustini yoptim-da, oyog'imga ilashgan xamirlarni tozalab o'tirdim".⁷

Kuzatish va tasavvur ko'pincha oddiy narsalarda kutilmagan tomonlarni kashf etadi. Ba'zan ijodkorning kuzatishi bir qarashda ataylab o'rganilganday tuyuladi. Ertalab quyosh bosh ko'taradi, quyosh botish paytida tiniq osmon o'zgacha tusga kiradi, toshga urilib parchalangan suv zarrachalari betartib otilayotgan dur-gavhar bo'lib ko'rinadi. Odatda bu kabi tasvirlarni biz oddiy holat deb qaraymiz. Ijodkor esa unda, avvalo, rang, holat, harakat, asar qahramoniga tegishli bo'lgan xarakter va joy tasviri bilan bog'liq peyzajni ko'radi, his qiladi. F.M.Dostoyevskiy "Men ko'chalarda kezzanimda butunlay notanish yo'lovchilarga qarashni, ular yuzini o'rganish va ular kimlar, nima bilan mashg'ul, ayniqsa, shu daqiqada ularni nima qiziqtirishini fahmlashni sevaman",-degan edi. Muallif qissa syujetining ta'sirchan bo'lishida, milliy odatlar ruhida bolalarni tarbiyalashda milliy an'ana va urf-odatlariga sodiq holda "Qari bilganni pari bilmas", "Qarisi bor uyning parisi" kabi maqollarga amal qilgan holda yo'l tutadi. Asardagi Bahodirning bobo, Mahmud kosib obrazini namuna sifatida berib hayotiy misollar yordamida

⁶ G'oziyev E. Psixologiya. O'qituvchi. T.170-bet

⁷ Shermatov Q. Buvamning oshqozonidagi mamlakat. Akademnashr. 2021. 42-bet

izohlab beradi. “Ya’ni Mahmud kosibning qo‘lidan “Qo‘l” daryosi ko‘zidan “Ko‘z” daryosi, qulog‘idan “Quloq” daryosu hosil bo‘ladi. Mahmud kosib shu olti a’zosini yaxshilik yo‘lida ishlatar ekan, daryolarimiz suvi hamisha tiniq, sersharbat, sershakar. Agar mabodo u kishi biror a’zosi bilan gunoh ishga qo‘l ursaq, o‘sha daryoda muammo tug‘iladi: ya’ni unda zaharpurkarlar dunyoga keladi. Ularni vaqtida tozalab turmasak, butun boshli dengizning suvi rasvo bo‘ladi. Natijada butun Yurak shahriga, boshqacha aytganda, Ko‘ngil shahriga bu ifloslik suvi bilan kirib boradi”.⁸ Parchada berilgan Mahmud kosib ko‘pni ko‘rgan, o‘zining umr yo‘li davomida hamisha odamlarga yaxshilik qilgan qahramon sifatida gavdalangan.

XULOSA (Conclusion)

Yozuvchi mahorati, tinimsiz izlanishlari, bola ruhiyatini yaxshi o‘rgangani, bolalarga xos bo‘lgan muhabbati- bularning barchasi uning g‘aroyib qahramonlarida bo‘y ko‘rsatadi. Bu qahramonlarni bugungi kunda bolalar xarakterining namunasi sifatida bemaol aytish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek bolalar adabiyoti Xudoberdi To‘xtaboyev, Anvar Obidjon asarlaridan keyin ancha bo‘shliq paydo bo‘la boshlangan edi. Qobiljon Shermatov ustozlar izidan borib, ana shu bo‘shliqni to‘ldirishga, harakat qilayotgan ijodkordir.

REFERENCES

1. Gafurovich, S. A. (2021). Analysis Of The Poem" Autumn Dreams" By Abdulla Oripov. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(01), 556-559.
2. Sabirdinov, A. . (2021). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. *Конференции*, 1(2).
3. Mukhammadjonova Guzalkhan. The image of a creative person in the poetry of Erkin Vohidov. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. Volume : 10, Issue : 11, November. - India, 2020.
4. Mukhammadjonova, G. (2020, December). ARTISTIC INTERPRETATION OF THE CREATIVE CONCEPT IN WORLD LITERATURE. In *Конференции*.
5. Abdurashidovich K. A. Motivation and National Character of Foolishness in Uzbek Literature // *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*. – 2018. – T. 7. – №. 4. – C. 47-51.

⁸ Shermatov Q. Buvamning oshqozonidagi mamlakat. Akademnashr. 2021. 8

6. Qayumov A. CREATING OF A NATIONAL CHARACTER THROUGH MEANS OF LITERATURE //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 1. – С. 235-240.
7. Kayumov, A. A., & Isakova, J. B. (2022). DESCRIPTION OF A CHILD'S IMAGE IN UZBEK LITERATURE. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(02), 115-122.
8. Kayumov, A. (2021). Character And Psychophysiology. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 3, 9-13.
9. Kayumov, A. (2021). Character And Psychophysiology. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 3, 9-13.
10. Джураева, М. А. (2020). THE CONCEPT OF A NEW HUMAN-BEING IN MODERN UZBEK STORIES. *Ученые записки Худжандского государственного университета им. академика Б. Гафурова. Серия гуманитарно-общественных наук*, (2), 85-89.
11. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. *Scientific Journal of Polonia University*, 32(1), 116-120.
12. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. *International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies*. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. –P.33-39.
13. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(12), 90-94.
14. Akhmadjonova O. A. Symbolic And Figurative Images Used In The Novel “Chinar” //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 03. – С. 389-392.
15. Ahmadjonova, O. (2020, December). THE ARTISTIC SKILL OF THE CREATOR. In Конференции.6. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 03. – С. 245-249.
16. Xasanova, X. (2020, December). THE MISSION AND LITERATURE OF LETTERS IN STORIES AESTHETIC FUNCTION. In Конференции.
17. Makhmidjonov, S. (2021). ARTISTIC INTERPRETATIONS OF THE EDGES OF THE HUMAN PSYCHE. *Интернаука*, (15-3), 75-76.
18. Yulchiyev, Q. (2019). The development of lyric chronotop in Uzbek poetry. *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(2), 77-81.

19. Юлчиев, К. В. (2020). ЛИРИК ШЕЪРДА БАДИЙЙ МАКОН МУАММОСИ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(5).
20. Azimovich, R. Z. Chronotope Image in the Novel "Ulugbek Treasure" by Odil Yakubov. *International Journal on Integrated Education*, 3(11), 183-186.
21. Rahimov, Z., & Gulomov, D. (2020, December). RETROSPECTIVE STRUCTURE IN FICTION. In *Конференции*.
22. Dehkonova, M. S. (2020). OYBEK'S POETRY THROUGH ANALYSES OF REPRESENTATIVES OF OYBEK STUDIES SCHOOL. *Theoretical & Applied Science*, (2), 13-17.
23. Hamidov, M. (2020, December). ARTISTIC FEATURES OF SHUKHRAT'S NOVEL "MASHRAB". In *Конференции*.
24. UMURZAKOV, R. (2018). Social environment and spiritual world of teenager in narrative "Saraton" by N. Fozilov. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(4), 104-105.
25. Umurzakov, R. (2021). ERA AND SPIRIT IN THE STORY "TWICE TWO IS FIVE". *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(02), 26-35.
26. Kasimov, A. Albert Camus in Uzbekistan.
27. Kasimov, A. A. (2020). PECULIARITIES AND SIMILARITIES OF SYMBOLIC EXPRESSION IN THE NOVELS "THE PICTURE OF DORIAN GRAY" AND "THE MAN AT THE MIRROR". *Theoretical & Applied Science*, (5), 590-592.
28. JURAYEV, H., & ABDURAHIMOVA, J. (2018). Semantic layers of the expression in the Babur lyric. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(3), 111-112.
29. Rustamova I.I. Rhythm Views on the Plot of the Work // Badiy asar syujetida ritm ko'rinishlari. // *International Journal of Innovative Research*. – India, June, 2021, –P. 8355-8357.
30. Rustamova I.I. PORTRAIT AND ITS ARTISTIC-AESTHETIC FUNCTION IN THE WORKS OF ABDULLA QAHHOR//Abdulla Qahhor asarlarida portretning badiiy-estetik funksiyasi//*AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH*. –America, December, 2021, –P. 230-234.